

Irim sirimlar va qadriyatlar: ular bir xillashib ketmadimi?

Maftuna Habibullayevna Ibodullayeva
maftunaibodullayeva@gmail.com
Samarqand davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola insonlar hayotidagi irim-sirimlar, ularning ahamiyati, turi haqida bo'lib, irim-sirimlarning ba'zilarining foydasi va ba'zilarining falokatli zarari haqidadir. Asrlar davomida xalqlarda, xususan o'zbek xalqida, irimlarning qo'llanilishi juda keng ko'lamda shakllangan bo'lib, ular hattoki qadriyat sifatida noto'g'ri talqin qilina boshlangan. Har narsaning me'yori bo'lgani kabi, insonlar irimlarni ham o'z aqllariga tayangan holda o'z hayotlarida ishlatsalar nur ustiga a'lo nur bo'ladi

Kalit so'zlar: irim-sirimlar, qadriyatlar, isbotlanmagan g'ayritabiiy kuchlar, marosimlar, urf-odatlar

Big secrets and values: have they not become one?

Maftuna Habibullayevna Ibodullayeva
maftunaibodullayeva@gmail.com
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article is about the myths in human life, their importance, type, and about the benefits of some myths and the catastrophic harms of others. Over the centuries, the use of superstitions has been so widespread among peoples, especially the Uzbeks, that they have even been misinterpreted as values. As is the norm, if people use superstitions in their lives based on their intellects, it will be a great light upon light.

Keywords: superstitions, values, unproven supernatural forces, rituals, customs

O'zbek xalqimiz ma'nau boy, tarixan olis vaqtlar ta'siridagi juda ko'hna xalq. Xalqimizning har bir kuni, balki har bir daqiqasi rang-barang urf-odatlar, e'zozlanib kelayotgan qadriyatlar bilan to'la va chambarchas bog'liqdir. Ba'zida o'ylab qolasan kishi, shu qadar boy xalq yana yer yuzining biror yerida bormikan deb?

Qadriyat so'zi ko'rinib turganidek qadr, ya'ni hurmat qilmoq, asramoq yoki e'zozlamoq ma'nolarini beradi. Ushbular qatorida xalqimiz qon qoniga singib ketgan kattaga hurmat, kichikka izzat, nochorlarga yordam berish, qariyalarni ko'nglini ko'tarish, yetimlarni boshini silash... ehhe davom etsak oxiriga yetish qiyin. Ammo

shular bilan birga sodda xalqimiz orasida keng ishonilib kelinayotgan, davomli ravishda qo'llanilib kelinayotgan va 'qadriyatlar' tushunchasi bilan chalkashtirilayotgan - irim-sirimlar ham borki, ular go'yo haqiqiy o'zbekligimizga chang solayotgandek ko'rinadi. Irim-sirimlar mavzusida izlanish olib borishni boshlaganimizda, shu holatga amin bo'ldikki, nafaqat o'zbek xalqimiz, balki Yevropa xalqlari, Ingliz tilida so'zlashuvchi millatlar ham bu borada juda boy ekan. Bu mavzu juda boy, mulohaza talab etadigan, o'ylantiradigan mavzu bo'lib har qanday xalqda ularning mavjudligi, insoniyatning naqadar ishonuvchan ekanligini, ularni dinlarini yaxshi tushunmas ekanliklarini yaqqol ko'rsatib beradi.

Ildizan, qadimgi tosh davrlariga borib taqaladigan bu tushunchalar, asosan insonning tajribasizligi, jonsiz narsalardan panoh izlashi, yoki o'z-o'zini ovutishi natijasida kelib chiqqaniligini tushunishimiz mumkin. Chunki o'sha davrlarda, inson hali din nima ekanligini bilmaganligi, o'z aqllaridan to'g'ri foydalana olish qobiliyatiga ega emasligi ularni shu kabi narsalarga bog'lanib qolishlariga olib kelgan. Lekin hozir insonlar asrlar davomida shakllanib bo'lib, zotan o'zlari ko'p narsalarni ixtiro qilaturib hali ham shu kabi odatlarni qadrlab kelishlari g'alati emasmi?

O'zbek xalqimizning har bir marosimi yoki, har bir muhim kuni irimlarsiz o'tmay qolmasligi, bu hali ham ularning tashqi isbotlanmagan kuchlardan panoh izlashlarini ko'rsatib berayotgandek, go'yo. Bola tug'ilishidan tortib to insonning so'nggi kuniga qadar irimlarning hozir bo'lishi ba'zida foyda keltirsa, ba'zi hollarda insoniyatni jarga yetaklayotgandek ko'rinadi. Aytaylik, bola o'zbek oilasida tug'ildi, u ana shu kundan boshlab 40 kun davomida begona ko'zlardan asralishi, uni kech tushganda ko'chaga chiqarilmasligi yoki ko'chadadan begona odamlarni uning oldiga yo'llatilmasligi, albatta faqat bola va ona salomatligiga foyda hisoblanadi. Lekin, bola tug'ilgan xonaga bir yoshi ulug'roq kampirni chaqirib, "tovuq qonlatish", o'sha xonada "chiroq" yoqish kabi odatlarchi, ular bid'at emasmi?!

Biz Islom kabi, buyuk, faqat yaxshilikka yetaklaydigan dinga bo'ysunadigan xalqimiz, bu kabi odatlar esa bizning o'z Robbimizga bo'lgan ishonchimizning kamligini ko'rsatibgina qolmay, balki birgina shu holatga gigeyinik jihatdan qarasa - tovuqning qonini hali terisi juda nozik, imuniteti yaxshi shakllanmagan go'dakka surtish uning sog'lig'ini xavf ostiga qo'yish hisoblanib qoladi. Yoki, o'sha xonaga cho'p, yog' va paxtadan yasalgan chiroqni yoqish, birinchidan xavfsizlik jihatdan to'g'ri kelmasa, keying tarafdin esa olovga ishonish, uni turli ins-jinslardan insonni himoya qiladi deb o'ylash bu o'zga din vakillariga taqlid hisoblanadi. Ya'ni bu kabi odatlar tarixiy zardushtiyar diniga mansublarniki hisoblangan. Har qanday holatda ham bu kabi bid'atlar - insonning bilimga ega, ongli yaratiq ekanligini inkor etib, uni kuchsiz va tajribasiz qilib tasvirlab beradiku.

Ba'zida esa xalqimizning u yoki bu kabi irimlarning - qadriyat deb atashlari juda g'alati, chunki qadriyatlar insonga faqat va faqat yaxshilik olib kelishi bilan qadrlanadi. Agar biz irimlarning turlariga e'tabor qaratadigan bo'lsak ularni to'y marosimi, chaqaloq tug'ilganda, hayvonlarga yoki ma'lum bir ob'yektlarga va dafn marosimida ko'proq ishlatilishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Hayotimizning ushbu sanalgan takrorlanmas voqealarida irimlar har bir daqiqani 'bezaydi'. Inson shu kabi holatlarni deb ba'zida bir-birini xafa qilish bir chetda tursin, hattoki endi qurilayotgan oilalarnida buzishga tayyor turishadi. Bu holatlar albatta hamma uchun bo'lmasligi mumkin, ammo ko'p holatlarda shu kabi muammolar insonlar hayotini do'zaxga aylantiradi desak mubolag'a bo'lmas balki.

Bir necha yillar ilgari efirga uzatilgan telenovella - "Qirq tog'oraning qirq nog'orasi"ni bir eslaylik, unda endigina shakklanayotgan yangi oila qariyb buzilishiga bor yo'g'i qadam qoladi. Buning sababi esa, yana o'sha irim - quda tarafga jo'natiladigan tog'oraning sonining toq bo'lib qolganligi bo'ladi. Bir dunyo mashmasha-yu 'bosh og'riqlardan keyin aniqlanadiki, bu yerda anglashilmovchilik bo'lgan.

Kundalik hayotda bo'lganidek, moliyaviy dunyoning ham o'ziga xos irimlari borki, u tildan-tilga o'tib, qandaydir qonuniyatga aylanganidek, go'yo. Kimdir ularga amal qilsa, boshqalar parvo qilmaydi. Ko'pchilik ishonadigan irimlar ham mavjud bo'lib, istasak-istamasak, diqqat- e'tiborimizni ularga qaratamiz. Masalan: chap qo'l qichishsa, pul keladi, deymiz va hokazo.

Quyida beriladigan irim va qoidalar ham bundan mustasno emas. Ularga amal qilish-qilmaslik esa faqatgina aqlimiz va ongimizga havola:

- Pullar ko'p bo'lmaydi.
- Pullar hech kimniki bo'lishi mumkin emas.
- Pullar yorug'likni sevmaydi.
- Pul yo'qligida uni qay maqsadda sarflash istagi ko'p bo'ladi, pul ko'pligida esa bunday xohish kamayib boradi.
- Pul qancha ko'p bo'lsa, u o'sib boraveradi (pul pulni o'ziga chorlaydi).
- Kimningdir oldida o'zingizni burchli hisoblasangiz, o'sha odamga qarz bermang - u bunga o'zini haqli hisoblab, qarzni qaytarmaydi.
- Qaytarishga ko'zingiz yetmasa, pulni also qarzga bera ko'rmang.
- Pullarni qo'ldan-qo'lga berishdan oldin shunday deng: "Senda doimiy pullar bo'lsin va menda ko'paysin".
- Pullarni uyingizda saqlang (Yana: pul pulni o'ziga chorlaydi) va doimiy ravishda sanab boring.
- Pullarni g'ijimlamang, yirtmang va toptamang.
- Ostonangizdagi poyandoz tagida kumush tangalar bo'lsin.

Ba'zi xalqlarda juma kuni 13-sanaga to'g'ri kelsa, baxtsizlik keltiradi degan irim bor. Bu irimning kelib chiqishi haqida bir necha rivoyatlar mavjud.

Ulardan biri Qadimgi Ahd diniy kitobidan olingan. Unda yozilishicha shu kuni Qobil ukasi Hobilni o'ldirgan. O'shandan beri juma kuni 13-sanaga to'g'ri kelsa, bu kun baxtsizliklar belgisiga aylanib qolgan.

Yana bir rivoyat bo'yicha bu kun tampliyerlar ordeni voqeasi bilan bog'liq. 1307 yilning 13 oktyabri juma kuniga to'g'ri kelgan. Aynan shu kuni Fransiya qiroli Phillip IV papa Kliment V ning muhri bosilgan maxfiy hujjatga tayanib, orden a'zolarini hibsga olishni buyuradi. Orden a'zolari dinga qarshi chiqishda va fahsh ishlarida ayblanadi. Natijada orden tarqatib yuboriladi, hibsga olingan tampliyerlar esa qiynoqqa solinib, so'ngra qatl qilinadi.

Ostonadan turib narsani oldi-berdi qilish mumkin emas

Gap shundaki, qadim zamonlarda o'liklar kuli uy ostonasi tagiga ko'milgan. Shuning uchun ostonada turib oldi-berdi qilish ularning ruhini bezovta qilishi mumkin deb hisoblanar edi. Aynan ana shu sababli ostonada o'tirish ham mumkin emas.

Bundan tashqari ostonaga - bexavotir uy bilan xavfli dunyo yoki yanaham qo'rqinchlisi - tiriklar dunyosi bilan o'liklar dunyosi o'rtasidagi chegara hisoblanadi.

Yarim yo'ldan qaytish mumkin emas

Bu irim ham ikki dunyo oralig'i hisoblangan ostonaga bilan bog'liq. Maqsadiga erisholmasdan yarim yo'lda qaytayotgan odam kuchsiz holda bo'ladi. Bu esa ruhlarning bezovtaligiga sabab bo'ladi. Yoki bizning olamga kirib olishni istagan mavjudodlar uchun imkoniyat bo'ladi.

Soat hadya qilish mumkin emas

Hattoki hozirgi o'ta madaniyatli zamonda ham soat hadya qilish nomaqbul sovg'a hisoblanadi. Bu irim qadimgi Xitoydan kirib kelgan. Unda aytilishicha soatni sovg'a sifatida qabul qilish janozaga taklif qilishni bildiradi.

40 yoshni nishonlash mumkin emas

Taxmin qilinishicha, qadimgi Kiyev Rusida o'lganlarning jasadi 40 kun davomida tekshirilar edi. Agar jasad chirimasa u o'lgan odam yoki avliyo bo'lgan, yoki begunoh ketgan deb hisoblanar edi.

Uydan chiqish oldidan ozgina o'tirish kerak

Ba'zi xalqlarda tarqalgan bu irimning jin va parilar bilan bog'liqligi ma'lum. Uydagi parilar odamga ko'chaga chiqqanda chalg'itib, uyga qaytishga majbur qilishi mumkin, deb hisoblangan. Yo'lga chiqishdan oldin ozgina o'tirib olinsa, jinlarni chalg'itish mumkin, ular hech kim hech qayerga ketmayapti, deb o'ylaydilar va ziyraklikni boy beradilar.

Pichoqdan narsa yeb bo'lmaydi

Qadim zamonlardan beri pichoq nafaqat mehnat quroli, balki har xil dushmanlardan va ins-jinlardan himoyalaniş vositasi, deb hisoblanib kelingan. Shuning uchun ham irim bo'yicha pichoqdan narsa yeyish ins-jinlarni g'azabini keltirish mumkin, bu esa o'z navbatida odamni jaxhdor va agressiv qilishi mumkin degan tushuncha mavjud.

Irimning foydalari:

Agar biz irimlarning foydalariga e'tabor qaratadigan bo'lsak, ular ham bisyor. Masalan, irim-sirimlar haqida fikr yuritiladigan tok-shoularda irimlar ostida haqiqat, ezgulikka, pokizalik va gigiyenaga chorlash bor ekan. Masalan, supurgini tik qo'yish uning shakli buzilishiga olib keladi, tirnoqni tunda olsa, yo'qolib qolishi va yosh bolalar yutib yuborishi mumkin (tibbiyot tirnoq namlik bor har qanday joyda, oshqozonda ham o'sishini ta'kidlaydi, lekin aytib qo'yay o'zim ham qorong'uda olib turaman), shomdan keyin uy supurilganda yaxshi tozalanmasligi mumkin (lekin odatda mehmon yotib qolsa, o'rin tayyorlashdan avval bir qator supuriladi), mag'zava har yerda to'kilsa, o'rni oqarib qoladi, hasharot ko'payadi. Ammo faqatgina fan isbotlaganlariga amal qilish ma'qulroq hisoblanadi. Masalan, kirish eshigiga, yotoqqa, uy jihozlariga parraklangan sarimsoq bo'laklaridan ipga tizib osib qo'yish, yuqumli kasalliklar, ayniqsa, gripp va hasharotlardan himoyalaniishi isbotlangan.

References

1. Al-Farahidi, Kh. A. (1988). *Kitab al-Ayn*. Edited by Mandi Al-Makhzami & Ibrahim Al-SamirraI. Beirut: al-'Alam ii al-Matbfeat.
2. Al-Torayhi, F. M. (2001) *Majma' Al-Bahrain wa Matla' Al-Nayerain*. Tehran: Nashre Mostafavi.
3. Al-Zabidi , M. M. (2001). *Taj Al 'Arus Min Jawhir Al-Qamus(40 V.)*. Third Edition, Al-Kuwayt : Mat'baat Hukumat Al-Kuwayt.
4. Amid, Hasan (2010). *Amid Persian Dictionary*. Tehran: Rahe Rosh Publication.
5. Barsky, A. J., Sainfort, R., Rogers, M. P., & Borus, J. F. (2002). Nonspecific medication side effects and the nocebo phenomenon, *Journal of the American Medical Association*, 287(5), 622-627.
6. Becker, J. (1975). Superstitions in Sport. *International Journal of Sport Psychology*, 6, 148-152.
7. Beck, J., & Forstmeier, W. (2007). Superstition and belief as inevitable by-products of an adaptive learning strategy. *Human Nature*, 18(1), 35-46.
8. Bernardin, A. (2004). The tea leaves of sports talk. *Skeptic*, 11(2), 54-59.
9. Bleak, J. L., & Frederick, C. M. (1998). Superstitions behavior in sport: Levels of effectiveness and determinants of use in three collegiate sports. *Journal of Sport Behavior*, 21(1), 1-15.
10. Blum, S. H., & Blum, L. H. (1974). Do's and don'ts: An informal study of some prevailing superstitions. *Psychological Reports*, 35, 567-571.
11. Ibodullayeva, M.H. (2022) The use of superstitions in the life of English speaking countries and their types according to situations, Samarkand: So'z san'ati, 2022, 2-3 p